

Ilm bilan, aql bilan harakat qilsak, yana-da ulkan marralarga erishamiz



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, odamlar hayoti bilan tanishish maqsadida 21-may kuni Andijon viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Oltinko'l tumanidagi "Ko'hna vodiy bahori" fermer xo'jaligida bo'lib, g'alla va g'o'za rivojini ko'zdan kechirdi.

– Iqlim sharoiti yurtimizga o'xshash xorijiy davlatlarda paxtadan 70 sentnergacha hosil olishadi. Qanday qilib? Ilm bilan, aql bilan. Andijonda yer kamligini hisobga olib, undan ikki karra samarali foydalanish zarur. Ishsiz, daromadi yetarli bo'lmagan minglab odamlar bor. Ishimizga o'shalarining ko'zi bilan baho berishimiz kerak, – dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari g'o'za qator oralariga soya ekish bo'yicha Andijon tajribasini yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

– Fermer dalaga reja uchun emas, daromad uchun kirishi kerak. Soya ekilsa, bitta maydondan ikki barobardan ziyod daromad olish, yana ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlash mumkin. Undan olinadigan moy ham, omixta yem ham juda sifatli, bozorbop. To'g'ri, bu qiyin. Lekin qaysi ish oson? – deya savol qo'ydi Shavkat Mirziyoyev.

Agrotexnologiyalarni rivojlantirish maqsadida Toshkent davlat agrar universitetining Andijon viloyati filiali negizida qishloq xo'jaligi yo'nalishida alohida oliy ta'lim muassasasi tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

"Ko'hna vodiy bahori" fermer xo'jaligining umumiy yer maydoni qariyb 76 gektar. Joriy yilda g'allaning har gektaridan 20, paxtadan 10 sentnerdan qo'shimcha hosil yetishtirish rejalashtirilgan. G'alla hosildorligi 81 sentner bo'lishi kutilmoqda.

Fermer xo'jaligida 60 kishi doimiy va mavsumiy ish bilan ta'minlangan. Chorvachilik, asalarichilik yo'lga qo'yilgan.

Shu yerda paxtachilik, g'allachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari hamda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari qayta jihozlangan avtobusda tashkil etilgan sayyor laboratoriya bilan ham tanishdi.

Prezidentiiz Shavkat Mirziyoyev Andijon shahridagi "VBM tekstil grup" MCHJga qarashli eksportbop tayyor tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan zamonaviy korxonada ham bo'ldi.

Ushbu korxonani barpo etish uchun ikki yil oldin "Obod" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi eski bino loyiha tashabbuskorlariga investitsiya kiritish sharti bilan "nol" xarid qiymatida berilgan edi.

O'tgan davrda qariyb o'n uch yil qarovsiz yotgan mazkur inshootda yirik hajmda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Keng, yorug' sexlar, omborxonalar va boshqa qo'shimcha xonalar bunyod etildi. Ishchilarning mehnat qilishi va dam olishi uchun zarur qulayliklar yaratildi.

Italiya, AQSH, Yaponiyaning zamonaviy tikuvchilik dastgohlari o'rnatilib, 1200 ta yangi ish o'rni yaratildi. Loyihani ishga tushirish uchun 6,5 million dollar mablag' sarflandi. Uning 4 million dollari tijorat banki kreditidir.

Prezidentimiz mazkur korxonaga mutaxassis va tikuvchilari bilan suhbatlashib, ishlab chiqarilgan tikuvchilik mahsulotlarini ko'zdan kechirdi.

– Avvalambor, sizlarni yaqinlashib kelayotgan ulug' ayyom bilan tabriklayman. Bu fabrika andijonliklarga o'ziga xos tuhfa bo'libdi. Biz uchun har bir ish o'rni muhim. Bu yerda shuncha xotin-qiz ishli bo'lganidan juda xursandman. Tadbirkorlarimiz jahon bozorlariga chiqmoqda. Bu – dunyoqarash o'zgarishi, imkoniyatlar natijasi, – dedi Prezident.

MDH mamlakatlari bilan shartnomalar imzolangan bo'lib, yiliga 27 million dollarlik mahsulot eksport qilish mo'ljallangan. Bu geografiyani kengaytirish maqsadida Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Mutasaddilarga paxta tolasini qayta ishlashni chuqurlashtirib, qo'shilgan qiymat yaratish, korxonalarga qo'shimcha investitsiyalar yo'naltirib, ishlab chiqarishning to'liq siklini o'zlashtirishga ko'maklashish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ilgari viloyatda yetishtirilgan paxta faqat xomashyo sifatida sotilardi. Bundan daromad 100 million dollarga ham yetmasdi. Endilikda qayta ishlash rivojlanayotgani natijasida joriy yilda qariyb 440 million dollarlik mahsulot eksport qilinadi. 2021-yilda bu ko'rsatkichni 527 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Shu yerda viloyatda 2020–2021-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya, tadbirkorlik va kichik biznes, hunarmandchilikni rivojlantirishga doir istiqbolli loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Xususan, joriy yilda 954 ta loyihani amalga oshirish belgilangan. Buning natijasida 68 mingdan ziyod ish o'zni yaratiladi.

"VBM tekstil grup" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Andijonda jinsi shim ishlab chiqarish, mato to'qish va bo'yash korxonalari tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Qiymati 30 million dollarlik ushbu loyihaning ishga tushishi natijasida 2700 yangi ish o'zni yaratiladi, yillik 750 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Andijon aholi zichligi eng yuqori hududlardan biri. Viloyatda yerdan unumli foydalanish hisobiga aholini uy-joy, ish bilan ta'minlash, ijtimoiy muhofaza qilish, turmush sharoitini yaxshilash mumkin. Shu bois bu yerda sobiq ishlab chiqarish maydonlari o'rnida turar joy majmualari qurish hamda aholini uy-joy bilan ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Davlatimiz rahbari bundan roppa-rosa ikki yil muqaddam – 2018-yil 20-may kuni Andijon shahrida qad rostlayotgan yangi uy-joylarni ko'rgan edi. Mazkur hududda bu masala dolzarb ekanini inobatga olib, qo'shimcha turar joylar qurish bo'yicha topshiriq bergandi.

Shu asosida shaharda jami 1 ming 798 xonadondan iborat 41 ta ko'p qavatli uy barpo etildi. Jumladan, bunyod etilayotgan yangi mavzeda o'tgan yili yigirmata 7 qavatli, ikkita 16 qavatli uy qurib bitkazildi. Shu tariqa atigi uch yilda bu yerda ilg'or shaharsozlik andozalariga mos yirik mavze paydo bo'ldi.

Prezidentimiz ushbu mavzeni borib ko'rdi. 16 qavatli uydagi xonadonlardan birida bo'lib, oila bilan suhbatlashdi.

"O'zshahar qurilish invest" injiniring kompaniyasi buyurtmasi asosida "Xoqon Avtoinvest" MCHJ tomonidan qurilgan 16 qavatli uylar Andijon shahri uchun namuna bo'ldi. Loyiha qiymati 46,6 milliard so'm bo'lgan uylar Turkiya texnologiyasi asosida, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda yaxlit temir-betondan zilzilaga bardoshli qilib qurilgan. Binoning tashqi devorlari bazalt material bilan qoplangan. Internet tarmog'i, videokuzatuv tizimi bilan ta'minlangan.

Xonadonlar elektr plita, oshxona mebeli, isitish tizimi va issiq suv bilan ta'minlaydigan alohida qozonxona bilan mart oyida tayyor holda topshirilgan. Har bir uy ikkitadan lift bilan jihozlangan.

Mazkur uylar hovlisida dam olish va sport maydonchalari, bolalar o'yingohlari, avtoturargoh barpo etilgan.

Yangi uylarda shuncha maydondagi boshqa loyihalarga nisbatan 2 barobar ko'p

xonadonlar joylashgani mahalliy sharoit uchun juda muhim. Shu bois xonadonlarning narxi ham hamyonbop.

Mazkur turar joylar qurilishi shaharning ushbu qismida urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtirdi. Avvalo, ko'p qavatli uylarda bironta sotilmagan xonadon qolmadi, bu qurilish sur'atini oshirdi. Uylarga talab yuqoriligi bois hududga sanoat korxonalarining qiziqishi kuchaydi.

Bugungi kunda davlatimiz rahbarining aholining uy-joy sharoitini yaxshilash hamda ipoteka krediti bozorini yana-da kengaytirish to'g'risidagi qarori asosida hududda tijorat uylari ham barpo etilmoqda. Yana bir afzal jihati, bunday turar joy mavzolari bog'cha, maktab singari ijtimoiy infratuzilmasi bilan birga qad rostlamoqda. Boshqacha aytganda, andijonliklarning ko'p yillik orzu-havaslari ushalmoqda.

Aholini turar joylar bilan ta'minlashni izchil davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

– Kambag'allikdan chiqishning eng asosiy zamini – uy-joy. Odamlarning boshpanasi bo'lsa, o'zi harakat qilib, ro'zg'orini oyoqqa qo'yib oladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tumanlardagi aholi zich joylarga ham kommunikatsiya olib borib, barcha sharoitlarga ega ko'p qavatli uylar qurish, zamonaviy qishloqlar bunyod etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga safari chog'ida Marhamat tumanidagi "Vodiy hamkor agrofirma" tomonidan tashkil etilgan quyunchilik klasteri bilan ham tanishdi.

1 gektardan ziyod maydonda tashkil qilingan mazkur klaster joriy yil 1-maydan ishga tushdi.

Kooperatsiya usulida 50 ta xonadonga quyonlar tarqatilib, ulardagi odamlar bandligi ta'minlandi. Shuningdek, quyon terisini oshlash va teridan telpak tikish sexida 20 ta ish joyi yaratiladi.

Korxonaga "Kaliforniya", "Yangi Zelandiya", "Flander", "Reks" va "Velikan" zotli 1000 bosh quyon olib kelingan bo'lib, bir yil davomida ular soni 30 ming boshga yetishi kutilmoqda. Bu har bir quyon ikki kilogrammdan tosh bossa, jami 60 ming kilogramm parhez bop go'sht yetishtiriladi deganidir.

Quyunchilik klasteri tomonidan bir yilda jami 3 milliard so'mlikdan ziyod mahsulot ishlab chiqarish, 150 ming dollarlik eksport qilish rejalashtirilgan.

Ayni paytda viloyatda quyunchilik yo'nalishida 58 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur

loyihalar doirasida kooperatsiya usulida xonadonlarda quyon boqish ko'paytirilsa, eksport hajmi yana-da oshadi.

Viloyatda omixta yem ishlab chiqarishni ko'paytirish, quyonchilikni 1 million boshga yetkazish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Shu yerda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik korxonalari salohiyati haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbariga Ipoteka bank tomonidan Xitoy texnologiyasi asosida baliq yetishtirish loyihasi taqdim etildi. Odatda baliqchilik xo'jaliklari bir gektar ko'lda 3-4 tonnagacha baliq yetishtiradi. Mazkur intensiv usulda bir gektar sun'iy ko'lda 100 tonnagacha baliq olindi. Shuncha hosilni yetishtirishga bor-yo'g'i olti oy vaqt kerak bo'ldi.

Ushbu texnologiya biofiltr, ultraviolet yordamida soatiga 200 tonna suvni tozalab, kislorodga boyitib beradi. Bir gektar havzadagi suvni tozalash uchun 3 kun vaqt kerak bo'ladi. "Valliy Fish" MCHJ tomonidan Andijon tumanida amalga oshirilgan ushbu tajriba g'oyat samarali bo'lib, ayni paytda Ulug'nor tumanida 60 ta tadbirkor 100 ta Xitoy texnologiyasini qo'yishni boshladi. Bu ushbu intensiv usul yordamida viloyatda yil oxirigacha 10 ming tonna baliq yetishtirish mumkin deganidir.

Mazkur loyiha davlatimiz rahbariga ma'qul bo'ldi. Baliqchilikda Andijon texnologiyasini barcha viloyatlarda ham amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi. Yaqin kunlarda viloyat hokimlarining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosarlari uchun Andijon tumanida ko'rgazmali seminar tashkil qilinib, baliq yetishtirishda Xitoy texnologiyasi o'rgatiladigan bo'ldi.

– Andijonda chorva kam, go'sht boshqa joylardan olib kelinyapti. Quyon, parranda, baliq ko'paytirilib, go'shti iste'molga chiqarilsa, viloyatda go'sht narxi tushadi. Kambag'al oilalarga tarqatilib, klasterlar tomonidan qayta sotib olinsa, ularga daromad bo'ladi. Iqtisodiy kompleks va sektor rahbarlari shu bilan shug'ullanishi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga safari chog'ida "Zamonaviy qishloq" loyihasi taqdimoti bilan tanishdi.

Shu borada Paxtaobod tumani Bo'stonobod qishlog'i hamda Qo'rg'ontepa tumani "Yangi hayot" mahallasi uchun dastlabki bosh reja ishlab chiqilgan. Unga muvofiq, qishloq hududlarga zarur muhandislik kommunikatsiyalari tortilib, ko'p qavatli uylar quriladi. Ular, avvalo, bir uyda ko'pchilik yashayotgan, muhtoj oilalarga beriladi.

"Zamonaviy qishloq"da maktab, bolalar bog'chasi, tibbiyot muassasasidan tashqari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, "Book cafe", mini-bank shoxobchasi, sport-kongilochar maskanlar, avtobekat, qo'yingki aholi uchun barcha qulayliklar yaratiladi. Shu tariqa qishloqlarimiz ham kelgusida zamonaviy, yashash qulay maskanlarga aylanadi.

Prezidentimiz bu borada Andijon tajribasini yaratish kerakligini ta'kidladi. Buning uchun alohida loyiha ishlab chiqish, "Zamonaviy qishloq"dagi uylarni boshqa turar joylarga nisbatan arzon qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shu yerda viloyatda kambag'allikni qisqartirish, ipoteka kreditlari asosida yakka tartibdagi uylarni qurish-ta'mirlash loyihalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahrida Digital City nomli texnopark bilan tanishdi.

Yaqindagina 5,6 gektar maydonda qurib bitkazilgan ushbu majmua axborot texnologiyalari va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, dasturiy mahsulotlar eksportini yo'lga qo'yishga qaratilgan. Hozirgi kunda bu yerga tumanlardan 328 nafar mutaxassis jalb etilgan.

Davlatimiz rahbari yoshlar bilan suhbatda ularni doimiy o'rganish, izlanishga chorladi.

– Juda to'g'ri yo'lni tanlagansizlar. Bu – serqirra va istiqbolli soha. Sizlar boshqalardan 10-15 yil oldin yurishlaringiz kerak. Eng dolzarb yo'nalishlar bo'yicha dasturiy mahsulotlar yaratib, xalqimizga va xorijliklarga qulay xizmatlar ko'rsatib, ham oilangizga, ham jamiyatimizga naf keltirishingiz mumkin, – dedi Prezident.

Texnoparkda mahalliy yoshlar, tadbirkorlar, yangi hunar o'rganish istagida bo'lgan fuqarolar uchun keng qulayliklar yaratilgan. Jumladan, kovorking markazi, data-sentr, konferens-zal, kutubxona, innovatsion laboratoriya va o'quv xonalari, biznes inkubator, media markaz, kibersport xonasi tashkil etilgan.

Tumanlarda axborot texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich o'quv kurslari bo'ladi. Ulardan tanlab olingan yoshlar Digital Cityda intensiv ravishda ingliz tiliga o'qitilib, IT xizmatlar ko'rsatishga tayyorlanadi. Texnoparkdagi 76 nafar tinglovchiga mo'ljallangan zalda yil mobaynida 2 mingdan ortiq kishini o'qitish mumkin.

Axborot texnologiyalari va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, dasturiy mahsulotlar eksportini yo'lga qo'yish maqsadida ishlab chiqilgan Digital City loyihasi mohiyatiga ko'ra, Toshkentdagi IT parkdan so'ng tashkil etilgan ikkinchi, viloyatlar miqyosida esa birinchi.

Majmuada yotoqxon va oshxona tashkil etib, sharoitlarni yana-da yaxshilash, bunday texnoparklarni mamlakatimizning boshqa hududlarida ham ochish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezidentimiz Digital Cityning maqsadi va vazifalari, unda yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, kelasi 5 yilda O'zbekiston uchun ushbu sohani rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolishi, yoshlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda sohaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarurligini qayd etdi.

Shu yerda yoshlar bandligini ta'minlash, maktab bitiruvchilarini frilans bozoriga tayyorlash borasidagi ishlar yuzasidan axborot berildi.

Andijonda ham uzoq-yaqin tumanlarda frilanserlik faoliyati, ya'ni masofadan turib dasturlash va xosting xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar talaygina. Digital City ("Raqamli shahar") texnoparkidagi kovorking markazi ularning ishini osonlashtiradi, texnika, ofis xarajatlarini qisqartiradi. Bundan tashqari, markazda ro'yxatdan o'tgan dasturchilar jahon bozoriga o'z xizmat va mahsulotlarini eksport qilish, hamkorlar topishi oson kechadi.

Joriy yil yanvar-may oylarida viloyatda qariyb 19 ming nafar yoshlarning bandligi ta'minlandi. Yil oxiriga qadar yana 24 mingdan ziyod yigit-qizning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli reja ishlab chiqilgan. Jumladan, tadbirkorlik va ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi sohalarda yoshlar uchun yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

2019/2020 o'quv yilida viloyatdagi umumta'lim maktablarining 11-sinfini 40 mingdan ziyod o'quvchi tamomlaydi. Ular o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra 12 mingdan ziyod o'quvchi oliy ta'lim muassasalarida, qariyb 6 ming nafari texnikum va kasb-hunar kollejlarda o'qish, qolgani harbiy xizmatga borish, hunar o'rganish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida.

Xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida manzilli chora-tadbirlar ham muhokama qilindi. Bu boradagi dastur doirasida yil davomida xotin-qizlar uchun doimiy ish o'rinlari yaratish, subsidiyalar ajratish, haq to'lanadigan jamoatchilik ishlariga jalb qilish va o'zini o'zi band qilgan ayollarga mehnat guvohnomalarini berish orqali jami 10 ming 88 nafar ayolning bandligi ta'minlanadi.

Davlatimiz rahbari oliy o'quv yurtiga kirolmagan yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning qiziqish va layoqatini o'rganib, kasbga yo'naltirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Prezidentimizning Andijon viloyatiga tashrifi davom etmoqda.